

RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA BO'LAJAK PEDAGOGLARNING KASBIY REZILYENTLIGINI RIVOJLANTIRISH

Atayeva Guli Shuxratovna
Urganch davlat pedagogika instituti
mustaqil tadqiqotchisi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.22006778>

ANNOTATSIYA. Maqolada raqamli ta'lim muhitida bo'lajak pedagoglarning kasbiy rezilyentligini rivojlantirish muammosi ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot muammosi — bo'lajak pedagoglarning texnologik o'zgarishlar va kasbiy yuklama sharoitida barqarorligini ta'minlovchi mexanizmlarning yetarli darajada o'rganilmaganligidan iborat. Maqolaning maqsadi kasbiy rezilyentlik tushunchasini raqamli ta'lim kontekstida ilmiy asoslash va uning rivojlantirish modelini taklif etishdir. Tadqiqotda xorijiy va mahalliy ilmiy manbalar tahliliga asoslangan nazariy-analitik yondashuvdan foydalanilgan. Natijada kasbiy rezilyentlikning o'nta o'zaro bog'liq komponenti aniqlanib, ularni rivojlantirishning kontseptual modeli ishlab chiqildi. Tadqiqot natijalari pedagogika oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak pedagoglarni tayyorlash dasturlarini takomillashtirishda amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: kasbiy rezilyentlik, bo'lajak pedagog, raqamli ta'lim muhiti, pedagogik kompetensiya, raqamli kompetensiya, kasbiy moslashuv, refleksiya, kasbiy barqarorlik.

АННОТАЦИЯ. В статье анализируется проблема развития профессиональной резильентности будущих педагогов в условиях цифровой образовательной среды. Проблема исследования заключается в недостаточной изученности механизмов, обеспечивающих устойчивость будущих педагогов в условиях технологических изменений и профессиональной нагрузки. Цель статьи — научное обоснование понятия профессиональной резильентности в контексте цифрового образования и разработка модели её развития. В исследовании использован теоретико-аналитический подход, основанный на анализе зарубежных и отечественных научных источников. В результате выявлены десять взаимосвязанных компонентов профессиональной резильентности и разработана концептуальная модель их развития. Результаты исследования имеют практическое значение для совершенствования программ подготовки будущих педагогов в высших педагогических учебных заведениях.

Ключевые слова: профессиональная резильентность, будущий педагог, цифровая образовательная среда, педагогическая компетентность, цифровая компетентность, профессиональная адаптация, рефлексия, профессиональная устойчивость.

ABSTRACT. The article examines the problem of developing professional resilience among future teachers within a digital educational environment. The research problem lies in the insufficient theoretical elaboration of mechanisms ensuring future teachers' stability under technological change and professional workload. The article aims to substantiate the concept of professional resilience in the context of digital education and to propose a model for its development. A theoretical-analytical approach based on the synthesis of foreign and domestic scholarly sources was employed. As a result, ten interrelated components of professional resilience were identified, and a conceptual model for their development was elaborated. The findings hold practical value for improving future-teacher training programs at pedagogical higher education institutions.

Keywords: professional resilience, future teacher, digital educational environment, pedagogical competence, digital competence, professional adaptation, reflection, professional stability.

KIRISH. Zamonaviy jamiyatning raqamlashtirilishi ta'lim tizimiga chuqur ta'sir ko'rsatib, pedagog faoliyatining mazmuni va vositalarini tubdan o'zgartirmoqda. Raqamli texnologiyalarning ta'lim jarayoniga integratsiyalashuvi bilan bir qatorda, pedagogdan yangi turdagi kasbiy kompetensiyalar — texnologik savodxonlik, moslashuvchanlik, uzluksiz o'z-o'zini rivojlantirish qobiliyati talab etilmoqda. UNESCO tomonidan ishlab chiqilgan Pedagoglar uchun AKT kompetentligi doiraviy hujjatida ta'kidlanganidek, raqamli davr pedagogidan an'anaviy metodik bilimlardan tashqari, texnologik o'zgarishlarga tezkor moslashish qobiliyati talab etiladi [16].

Ushbu jarayon, bir tomondan, ta'lim sifatini oshirish imkoniyatlarini kengaytirsa, ikkinchi tomondan, pedagog kasbiy faoliyatida qo'shimcha stress omillari, axborot yuklamasi va professional beqarorlik holatlarini keltirib chiqarmoqda. Bo'lajak pedagoglar — hali kasbiy tajribaga ega bo'lmagan,

ammo tez orada murakkab raqamli ta'lim muhitiga kirib boradigan toifa — ushbu sinovlarga eng ko'p duch keladigan guruh hisoblanadi.

Xalqaro tadqiqotlarda kasbiy rezilyentlik tushunchasi pedagoglarning kasbiy barqarorligini ta'minlovchi asosiy omillardan biri sifatida keng o'rganilgan[6]. Biroq mavjud tadqiqotlarning katta qismi rezilyentlikni umumiy psixologik yoki umumkasbiy hodisa sifatida ko'rib chiqadi; uni maxsus ravishda raqamli ta'lim muhiti kontekstida, xususan bo'lajak pedagoglar tayyorgarligi jarayonida tahlil qiluvchi ishlar hali yetarli emas.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlari, jumladan “Raqamli O'zbekiston — 2030” strategiyasi [11] va “Pedagogning maqomi to'g'risida”gi Qonun [12] doirasida pedagog kadrlarning raqamli kompetentligini oshirish davlat siyosati darajasida belgilangan. Shu bois bo'lajak pedagoglarda raqamli ta'lim muhitiga moslashuv va kasbiy barqarorlikni ta'minlovchi rezilyentlik sifatlarini rivojlantirish nazariy-amaliy jihatdan dolzarb ilmiy-pedagogik muammo sifatida namoyon bo'ladi.

Ushbu maqolaning maqsadi — raqamli ta'lim muhitida bo'lajak pedagoglarning kasbiy rezilyentligi tushunchasini ilmiy jihatdan asoslash, uning tarkibiy komponentlarini aniqlash va ularni rivojlantirishning kontseptual modelini taklif etishdan iborat.

ASOSIY QISM. Kasbiy rezilyentlik tushunchasining ildizlari rivojlanish psixologiyasidagi rezilyentlik nazariyasiga borib taqaladi. N.Garmezi tomonidan boshlangan tadqiqotlar bolalarning noqulay sharoitlarga qaramay ijobiy rivojlanish qobiliyatini o'rganishga qaratilgan bo'lib [5], keyinchalik M.Rutter tomonidan himoyalovchi omillar nazariyasi bilan boyitildi [14]. E.Verner va R.Smitning Kauai orolidagi uzoq muddatli tadqiqoti rezilyentlikni nafaqat individual xususiyat, balki muhit bilan o'zaro ta'sir mahsuli sifatida talqin qilish zaruratini ko'rsatdi [19]. A.Masten esa bu jarayonni “oddiy sehr” (ordinary magic) metaforasi orqali izohlab, rezilyentlikni istisno emas, balki inson rivojlanishining tabiiy mexanizmi sifatida talqin qildi [9].

Psixologik rezilyentlikdan farqli o'laroq, kasbiy rezilyentlik muayyan kasbiy muhit — bizning holatimizda pedagogik faoliyat — talablariga nisbatan shakllanadigan moslashuvchan sifat sifatida qaraladi. Q.Gu va K.Deyning tadqiqotlari pedagogik rezilyentlikni statik xususiyat emas, balki vaqt o'tishi bilan kasbiy sharoitlar ta'sirida dinamik tarzda o'zgaruvchi jarayon sifatida ko'rsatadi [6]. S.Beltman, K.Mensfeld va E.Praysning keng ko'lamli tahlili pedagogik rezilyentlikni shaxsiy, kasbiy va institutsional omillar o'rtasidagi dinamik o'zaro ta'sir natijasi sifatida talqin qiladi [2]. R.Le Kornu esa yosh pedagoglar rezilyentligida kasbdoshlar va murabbiylar bilan o'rnatiladigan munosabatlarning hal qiluvchi rolini ta'kidlaydi [7], bu esa kasbiy rezilyentlikning ijtimoiy-munosabat komponentini ochib beradi.

M.Ungarning ijtimoiy-ekologik nazariyasiga ko'ra, rezilyentlik shaxsning ichki resurslari bilan uni o'rab turgan ijtimoiy va institutsional resurslar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik natijasida shakllanadi [17]. Ushbu yondashuv raqamli ta'lim muhitini tahlil qilishda alohida ahamiyat kasb etadi, chunki bo'lajak pedagogning rezilyentligi nafaqat uning shaxsiy sifatlariga, balki u faoliyat yurituvchi raqamli-institutsional muhitning imkoniyatlariga ham bog'liq bo'ladi.

“Kasbiy rezilyentlik”, “psixologik rezilyentlik” va “kasbiy moslashuvchanlik” tushunchalari o'zaro yaqin, ammo mazmunan farqlanadi. Psixologik rezilyentlik shaxsning har qanday og'ir vaziyatlarga nisbatan chidamliligini anglatadi, kasbiy rezilyentlik aynan kasbiy faoliyat jarayonidagi qiyinchiliklarga (yuklama, ziddiyatlar, texnologik o'zgarishlar) nisbatan barqarorlik va rivojlanishni ifodalaydi. Kasbiy moslashuvchanlik esa ko'proq tashqi o'zgarishlarga passiv moslashishni anglatadi, rezilyentlik faol, rivojlanuvchi va reflektiv jarayonni nazarda tutadi — ya'ni shaxs nafaqat moslashadi, balki qiyinchiliklardan kasbiy tajriba sifatida foydalanib, yangi sifat darajasiga chiqadi [9].

Shu nuqtai nazardan, mualliflik yondashuvimizga ko'ra, raqamli ta'lim muhitida bo'lajak pedagogning kasbiy rezilyentligi quyidagi kompleks sifat sifatida talqin qilinishi mumkin: bu — texnologik o'zgarishlarga moslashish, raqamli kompetensiyalarni muntazam egallash, kasbiy vaziyatlarni reflektiv tahlil qilish, pedagogik muammolarni konstruktiv hal etish, emotsional o'zini boshqarish hamda kasbiy rivojlanishni uzluksiz davom ettirish qobiliyatlarini o'zida mujassam etuvchi integrativ kasbiy-shaxsiy sifatdir. Bunday talqin G.Bonanno tomonidan asoslangan rezilyentlikning “ko'p yo'lli” (multiple pathways) tabiati haqidagi qarashlar bilan ham uyg'unlashadi, unga ko'ra rezilyentlikka erishishning yagona universal yo'li mavjud emas, balki turli shaxslar turlicha strategiyalar orqali barqarorlikka erishadi [3].

Zamonaviy xalqaro hujjatlar ham ushbu kompleks talqinni bilvosita tasdiqlaydi. UNESCO ning “Ta'lim 2030” doirasidagi Inchon deklaratsiyasida pedagoglarning o'zgaruvchan sharoitlarga moslasha oladigan, kasbiy jihatdan barqaror bo'lishi zarurligi ta'kidlanadi [15]. Yevropa Komissiyasi tomonidan

ishlab chiqilgan DigCompEdu doiraviy hujjati pedagoglarning raqamli kompetentligini bir necha sohaga ajratib, ular orasida kasbiy o‘zaro hamkorlik va uzluksiz kasbiy rivojlanishni alohida ajratib ko‘rsatadi [18]. OECD TALIS tadqiqoti natijalari ham pedagoglarning kasbiy barqarorligi ularning kasbiy hamjamiyat ichidagi hamkorlik darajasi bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi [10].

Yuqoridagi nazariy tahlil asosida raqamli ta‘lim muhitida bo‘lajak pedagogning kasbiy rezilyentligini tashkil etuvchi o‘zaro bog‘liq o‘n komponentni ajratib ko‘rsatish mumkin. Ularning har biri alohida emas, balki bir-birini to‘ldiruvchi tizim sifatida namoyon bo‘ladi: shaxsiy-emotsional daraja (emotsional o‘zini boshqarish, kasbiy motivatsiya), texnologik daraja (raqamli kompetensiya, texnologik moslashuvchanlik), ijtimoiy daraja (hamkasbiy qo‘llab-quvvatlash) va rivojlanish darajasi (refleksiya, uzluksiz kasbiy rivojlanish, innovatsion tayyorlik, muammo yechish va qaror qabul qilish qobiliyati). Ushbu komponentlar orasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniqroq tasavvur etish uchun quyidagi kontseptual model taklif etiladi.

Raqamli ta‘lim muhitida bo‘lajak pedagoglarning kasbiy rezilyentligini rivojlantirishning asosiy komponentlari

Komponent	Mazmuni	Rivojlantirish vositasi	Kutiladigan natija
Raqamli kompetensiya	Raqamli vositalar va platformalarni pedagogik maqsadda qo‘llash qobiliyati	Amaliy trening, mikro-modul kurslar	Texnologik ishonch va samarali foydalanish
Texnologik moslashuvchanlik	Yangi vositalarga tez va ijobiy moslashish qobiliyati	Simulyatsiya mashqlari, loyihaviy topshiriqlar	O‘zgarishlarga ochiqlik
Refleksiv kompetensiya	O‘z faoliyatini tahlil qilish va xulosa chiqarish qobiliyati	Refleksiv kundalik, portfolio	Kasbiy o‘z-o‘zini anglash
Emotsional o‘zini boshqarish	Stress va yuklama sharoitida emotsional barqarorlikni saqlash	Emotsional intellekt bo‘yicha trening, konsultatsiya	Psixologik barqarorlik
Muammolarni hal qilish qobiliyati	Pedagogik vaziyatlarda konstruktiv yechim topish	Keys-stadi, muammoli vaziyatlar tahlili	Moslashuvchan fikrlash
Kasbiy motivatsiya	Kasbga bo‘lgan ichki qiziqish va intilishni saqlash	Mentorlik, muvaffaqiyat tajribalarini almashish	Kasbiy sadoqat
Hamkasbiy va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash	Kasbdoshlar bilan hamkorlik va o‘zaro yordam tarmog‘i	Hamkorlik guruhlari, professional hamjamiyatlar	Ijtimoiy resurslarga ega bo‘lish
Uzluksiz kasbiy rivojlanish	Bilim va ko‘nikmalarni muntazam yangilash	Onlayn kurslar, malaka oshirish dasturlari	Kasbiy o‘sish
Innovatsion faoliyatga tayyorlik	Yangi pedagogik g‘oya va usullarni qabul qilish	Innovatsion loyihalarda ishtirok	Ijodiy pedagogik faoliyat
Noaniqlik sharoitida qaror qabul qilish	Tezkor va asosli qarorlar qabul qilish qobiliyati	Vaziyatli o‘yinlar, qaror qabul qilish trenagi	Kasbiy ishonch va tezkorlik

Taqdim etilgan model shuni ko‘rsatadiki, kasbiy rezilyentlikni rivojlantirish bir martalik tadbir emas, balki uzluksiz, ko‘p bosqichli pedagogik jarayondir. Modelning texnologik komponentlari (raqamli

kompetensiya, texnologik moslashuvchanlik) raqamli ta'lim muhitiga xos yangi talablarni aks ettirsa, shaxsiy-emotsional va ijtimoiy komponentlar rezilyentlik nazariyasining klassik yadrosini tashkil etadi. Bu esa kasbiy rezilyentlikni raqamli davr kontekstida rivojlantirish uchun yaxlit, ko'p qirrali yondashuv zarurligini ko'rsatadi.

MUHOKAMA / TAHLIL

Ko'rib chiqilgan nazariy yondashuvlarni qiyoslash shuni ko'rsatadiki, Q.Gu va K.Dey, shuningdek S.Beltman, K.Mensfild va E.Praysning modellari kasbiy rezilyentlikni ko'proq shaxs va kasbiy muhit o'rtasidagi munosabatlar darajasida, individual-relyatsion nuqtai nazardan tahlil qiladi. M.Ungarning ijtimoiy-ekologik yondashuvi esa e'tiborni kengroq institutsional va tizimli resurslarga qaratadi. Ushbu ikki yo'nalish bir-birini istisno etmaydi, balki bir-birini to'ldiradi: birinchisi rezilyentlikning shaxsiy-kasbiy mexanizmlarini, ikkinchisi esa uni ta'minlovchi tashqi shart-sharoitlarni ochib beradi.

Raqamli ta'lim muhiti klassik rezilyentlik modellariga nisbatan qo'shimcha o'lovchi — texnologik-raqamli komponentni kiritishni taqozo etadi. An'anaviy tadqiqotlarda bu jihat alohida ajratilmagan, biroq zamonaviy sharoitda pedagogning texnologik o'zgarishlarga moslasha olishi uning umumiy kasbiy barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois raqamli ta'lim muhitida kasbiy rezilyentlikni faqat psixologik chidamlilik sifatida emas, balki texnologik-pedagogik moslashuvchanlik bilan uyg'unlikda ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Bunda ta'kidlash joizki, ushbu tahlil mavjud nazariy manbalarning sintezi asosida shakllantirilgan mualliflik talqini bo'lib, kelgusi tadqiqotlarda empirik tekshiruvni talab qiladi.

XULOSA. O'tkazilgan nazariy tahlil natijalari quyidagi asosiy xulosalarni shakllantirish imkonini beradi:

1) raqamli ta'lim muhitida bo'lajak pedagogning kasbiy rezilyentligi kompleks, ko'p komponentli kasbiy-shaxsiy sifat bo'lib, u psixologik chidamlilikdan tashqari texnologik moslashuvchanlik va raqamli kompetentlikni ham o'z ichiga oladi;

2) kasbiy rezilyentlik psixologik rezilyentlik va kasbiy moslashuvchanlikdan farqli, faol, reflektiv va rivojlanuvchan jarayon sifatida talqin qilinishi lozim;

3) kasbiy rezilyentlikning shakllanishida shaxsiy-emotsional, texnologik, ijtimoiy va rivojlanish darajalari o'zaro bog'liq holda namoyon bo'ladi;

4) taklif etilgan o'n komponentli model bo'lajak pedagoglarni tayyorlash dasturlarini loyihalashda yo'naltiruvchi asos bo'lib xizmat qilishi mumkin;

5) raqamli ta'lim muhitiga xos texnologik-raqamli komponentning kiritilishi klassik rezilyentlik nazariyalarini zamonaviy sharoitga moslashtirish zaruratini ko'rsatadi;

6) O'zbekiston ta'lim tizimidagi raqamlashtirish siyosati ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlarni davlat ahamiyatiga molik ilmiy-amaliy vazifa darajasiga ko'taradi;

7) taqdim etilgan model va xulosalar keyingi bosqichda empirik tadqiqot orqali sinovdan o'tkazilishi va aniqlashtirilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Antonovsky A. Unraveling the Mystery of Health: How People Manage Stress and Stay Well. San Francisco: Jossey-Bass, 1979.

2. Beltman S., Mansfield C., Price A. Thriving not just surviving: A review of research on teacher resilience // Educational Research Review. — 2011.

3. Bonanno G.A. Loss, trauma, and human resilience: Have we underestimated the human capacity to thrive after extremely aversive events? // American Psychologist. — 2004.

4. Day C., Gu Q. Variations in the conditions for teachers' professional learning and development: Sustaining commitment and effectiveness over a career // Oxford Review of Education. — 2007.

5. Garnezy N. Resiliency and vulnerability to adverse developmental outcomes associated with poverty // American Behavioral Scientist. — 1991.

6. Gu Q., Day C. Teachers resilience: A necessary condition for effectiveness // Teaching and Teacher Education. — 2007.

7. Le Cornu R. Building early career teacher resilience: The role of relationships // Australian Journal of Teacher Education. — 2013.

8. Luthar S.S., Cicchetti D., Becker B. The construct of resilience: A critical evaluation and guidelines for future work // Child Development. — 2000.

9. Masten A.S. Ordinary magic: Resilience processes in development // American Psychologist. — 2001.

10. OECD. TALIS 2018 Results (Volume I): Teachers and School Leaders as Lifelong Learners. Paris: OECD Publishing, 2019.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston — 2030 strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni, PF-6079, 2020-yil 5-oktyabr.
12. O‘zbekiston Respublikasining “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘RQ-901, 2024-yil.
13. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘RQ-637, 2020-yil 23-sentyabr.
14. Rutter M. Resilience in the face of adversity: Protective factors and resistance to psychiatric disorder // British Journal of Psychiatry. — 1985.
15. UNESCO. Education 2030: Incheon Declaration and Framework for Action. Paris: UNESCO, 2015.
16. UNESCO. ICT Competency Framework for Teachers, Version 3. Paris: UNESCO, 2018.
17. Ungar M. Resilience across cultures // British Journal of Social Work. — 2008.
18. European Commission, Redecker C. European Framework for the Digital Competence of Educators: DigCompEdu. Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2017.
19. Werner E.E., Smith R.S. Vulnerable but Invincible: A Longitudinal Study of Resilient Children and Youth. New York: McGraw-Hill, 1982.
20. Zhang L., Luo H. Teacher resilience in the digital era // Frontiers in Psychology. — 2023.